



UDK: 373.091.3:811.512.133

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA ONA TILI FANLARINI O'QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH LINGVODIDAKTIK MUAMMO SIFATIDA

*Djakbarova Mahliyo Ibraximjonovna,
NamDPI, Boshlang'ich ta'limda innovatsiyalar
kafedrasini o'qituvchisi, PhD.
mahliyoibraximjonovna@gmail.com*

Annotatsiya. Tadqiqot maqsadi. Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda ona tili fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirishning lingvovididaktik muammo sifatida tahlili olib borilgan. O'quvchilarning ona tilini samarali o'zlashtirishidagi muammolar, ayniqsa, o'qish va yozish ko'nikmalarining rivojlanishi, metodik materiallarning eskirishi, shuningdek, ijodiy va mantiqiy fikrlashni rivojlantirishdagi qiyinchiliklar ko'rsatilgan.

Tadqiqot metodlari. Maqolada ushbu muammolarni hal qilish uchun interaktiv metodlar, shaxsiy yondashuv, zamонавиу texnologiyalar va ijodiy vazifalar kabi lingvovididaktik yondashuvlar taklif etilgan.

Tadqiqot natijalari. Ushbu yondashuvlar o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish va amaliy til ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Xulosa. Maqola boshlang'ich ta'limda ona tili fanini o'qitish jarayonini samarali tashkil etishda muhim metodik tausiyalarini o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, ona tili, o'qitish metodikasi, lingvovididaktika, interaktiv metodlar, shaxsiy yondashuv, zamонавиу texnologiyalar, nutq madaniyati, ijodiy fikrlash, mantiqiy fikrlash, o'quvchilarning ko'nikmalar, o'qish va yozish, metodik takomillashtirish.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ОБУЧЕНИЯ РОДНОМУ ЯЗЫКУ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ КАК ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА

Аннотация. Цель исследования. В статье анализируется совершенствование методики преподавания предметов родного языка в начальной школе как лингводидактическая проблема. Выделены проблемы в эффективном овладении учащимися родным языком, особенно в развитии навыков чтения и письма, устаревание методических материалов, а также трудности в развитии творческого и логического мышления.

Методы исследования. В статье предлагаются лингводидактические подходы к решению этих проблем, такие как интерактивные методы, личностный подход, современные технологии, творческие задания.



Результаты исследования. Эти подходы способствуют повышению интереса учащихся к языку, развитию культуры речи и укреплению практических языковых навыков.

Заключение. В статье содержатся важные методические рекомендации по эффективной организации процесса обучения родному языку в начальной школе.

Ключевые слова: начальное образование, родной язык, методика обучения, лингводидактика, интерактивные методы, личностный подход, современные технологии, культура речи, творческое мышление, логическое мышление, навыки учащихся, чтение и письмо, методическое совершенствование.

IMPROVING THE METHODOLOGY OF TEACHING MOTHER LANGUAGE IN PRIMARY EDUCATION AS A LINGUISTIC PROBLEM

Abstract. Research purpose. This article analyzes the improvement of the methodology of teaching the native language in primary education as a linguodidactical problem. Problems in the effective mastery of the native language by students are highlighted, especially the development of reading and writing skills, the obsolescence of methodological materials, as well as difficulties in the development of creative and logical thinking.

Research methods. The article proposes linguodidactical approaches to solving these problems, such as interactive methods, an individual approach, modern technologies and creative tasks.

Research results. These approaches serve to increase students' interest in the language, develop speech culture and strengthen practical language skills.

Conclusion. The article contains important methodological recommendations for the effective organization of the process of teaching the native language in primary education.

Keywords: elementary education, native language, teaching methodology, linguodidactics, interactive methods, personal approach, modern technologies, speech culture, creative thinking, logical thinking, students' skills, reading and writing, methodological improvement.

KIRISH

Ona tili ta'limi har bir xalqning tarixi, madaniyati va ma'naviyatining poydevori hisoblanadi. M. Sobirovaning ta'kidlaganidek: "Ayni paytda ona tili ta'limi oldiga qo'yiladigan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga va shu fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda savodli bayon qila olishga, ya'ni kommunikativ savodxonlikni rivojlantirishga o'rgatishdan iboratdir". [3; 107]

O'zbek tili bo'yicha boshlang'ich ta'limda sifatli o'qitish metodikasining takomillashishi zarurati bugungi kunda dolzarb muammolardan biridir. Ta'lim jarayonining samaradorligi, o'quvchilarining ona tilini mukammal o'zlashtirishi, nafaqat grammatika va imloviy bilimlariga, balki nutq madaniyati, mantiqiy



fikrlash, ifodali va ijodiy nutqni rivojlantirishga ham bog'liqdir. Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich ta'lurma ona tili fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish lingvovididaktik muammo sifatida qaralishi kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Boshlang'ich ta'lurma ona tilini o'qitish metodikasining takomillashishi, o'quvchilarga to'g'ri va samarali bilimlarni yetkazish jarayonini yaxshilash uchun zarurdir. Bu o'zgarishlar lingvovididaktikaning asosiy yo'nalishlariga, ya'ni til o'rgatishda nazariy va amaliy yondashuvlarni qo'llashga tayanadi. Lingvovididaktika til o'rganishning nazariy asoslarini o'rganadi, tilni o'qitish jarayonini ilmiy asoslaydi va metodik usullarni ishlab chiqadi. O'quvchilarning ona tilini o'rganish jarayonida qo'llanadigan metodlar ularning tilga nisbatan qiziqishlarini, shuningdek, o'rganilgan bilimlarning samaradorligini ta'minlaydi.

N. Jo'rayevaning ta'kidlashicha, boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani quyidagi 4 bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Savod o'rgatish metodikasi, ya'ni elementar o'qish va yozishga o'rgatish. Bolalarga savod o'rgatish pedagogika fanidagina emas, balki ijtimoiy hayotda ham juda jiddiy masalalardan hisoblanadi. Chunki xalqning savodxonligi mustaqillik uchun, siyosiy onglilik uchun, madaniyat uchun kurash qurolidir.

2. O'qish metodikasi. Boshlang'ich sinflarda o'qish predmetining vazifikasi bolalarni to'g'ri, tez (me'yorida), ongli va ifodali o'qish malakalari bilan qurollantirish hisoblanadi.

3. Grammatika, fonetika, so'z yasalishini o'rganish metodikasi. Bu bo'lim elementar to'g'ri yozuvga va husnixatga o'rgatishni, grammatik tushunchalar, boshlang'ich imlo malakalarini shakllantirishni nazarda tutadi.

4. Nutq o'stirish metodikasi. Bu bo'lim boshlang'ich sinflarda alohida o'rinn tutadi. Bolalar birinchi navbatda tilni, nutqni o'quv predmeti sifatida anglaydilar, ular xohlagan va qiziqarli narsalarnigina emas, balki zaruriy narsa va hodisalar haqida o'ylab, rejali nutq tuzish zarurligini ham tushuna boshlaydilar. Ular o'zining grafik shakli bilangina emas, balki leksikasi, sintaktik va morfologik shakli bilan ham og'zaki nutqdan farq qiladigan yozma nutqni ham egallaydilar. [4; 120]



Metodika bolalar nutqini boyitishi, sintaktik va bog'lanishli nutqini o'stirishni ham ta'minlashi kerak. Shuni aytib o'tish kerakki, bog'lanishli nutq maktablarda alohida bo'lim sifatida o'rganiladi, u til fanining boshqa bo'limlari bilan bog'langan holda shakllantiriladi.

Boshlang'ich ta'lilda ona tili fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish lingvovidaktik muammo sifatida katta ahamiyatga ega, chunki til o'rgatish faqat grammatika va lug'atni o'rgatishdan iborat emas, balki shaxsni to'liq rivojlantirishga, uning fikrlash va muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. O'zbekistonda tilni o'qitish metodikasini takomillashtirishga oid fikrlarni ilgari surgan olimlardan biri Zayniddinov "ona tili – nafaqat kommunikativ vosita, balki fikrlashni va tafakkurni rivojlantirishning ham bir vositasidir" deb ta'kidlaydi. Ushbu fikrni kengaytiradigan bo'lsak, ona tilini o'rgatish nafaqat til bilimi, balki o'quvchilarning dunyoqarashi, madaniyati, fikrlash tarzini shakllantirishga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

O'qitish jarayonida zamonaviy metodlar va texnologiyalardan foydalanish, shaxsiy yondashuv va interaktiv usullarni qo'llash til o'rganish jarayonining samaradorligini oshiradi. Interaktiv usullar o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlab, ularning fikrlarini erkin ifoda etish, muloqotda bo'lish va guruhda ishslash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ko'plab tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan tadqiqotda interaktiv metodlar yordamida o'quvchilarning nutq madaniyati va ijodiy fikrlash qobiliyatları ancha rivojlanishi ta'kidlangan. Ushbu metodlar o'quvchilarni faqat bilim olish bilan cheklanmay, balki o'z fikrini izchil va lo'nda ifodalashga, muammolarni hal qilishga, kreativ fikrlashga undaydi.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish o'quvchilarning tilni amaliy ravishda o'rganish imkoniyatlarini kengaytiradi. Masalan, multimedia vositalari, interaktiv dasturlar va internet resurslari yordamida o'quvchilarga o'qish, yozish, tinglash va gapirish ko'nikmalarini shakllantirishda keng imkoniyatlar yaratiladi. O'qituvchilar tomonidan interaktiv ta'lif texnologiyalarining qo'llanishi o'quvchilarning tilga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ularni tildan amaliy foydalanishga rag'batlantiradi.



Bundan tashqari, shaxsiy yondashuv va o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish o'qitish jarayonini samarali o'tkazishning muhim shartlaridan biridir. "Har bir o'quvchi o'zining o'rganish usulini va tezligini tanlaydi" deb yozadi A. Davronov [2; 149]. Shaxsiy yondashuv yordamida o'quvchilar o'zlari uchun eng qulay bo'lgan metodlarni tanlab, o'rganish jarayonida yuqori natijalarga erishishlari mumkin.

Natijada, zamonaviy metodlar, texnologiyalar va interaktiv yondashuvlarni qo'llash, shaxsiy yondashuvni ilgari surish til o'rgatish jarayonini yanada samarali qiladi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilarning til bilimlarini mukammallashtirish, nutq madaniyatini rivojlantirish va ijodiy fikrlashni rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lilda ona tili fanini o'qitish metodikasida bir qancha muammolar mavjud. Ularning asosiyлари quyidagilar:

1. **O'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmalarining yetarli darajada rivojlanmasligi** – ko'plab o'quvchilar ona tilini to'g'ri talaffuz qilishda va yozish mashqlarini bajarishda qiynalishadi. Bu esa ularning tildan foydalanish imkoniyatlarini cheklaydi.

2. **Metodik usullar va materiallarning eskirishi** – o'qituvchilar ko'pincha eski va an'anaviy metodlarga tayanishadi, bu esa zamonaviy talablarga javob bermaydi. Misol uchun, o'quv kitoblaridagi materiallar o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlariga va ehtiyojlariga javob bermaydi.

3. **O'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishning yetishmasligi** – o'qitish jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlashini, nutq madaniyatini rivojlantirishga yetarlicha e'tibor berilmaydi.

Boshlang'ich ta'lilda ona tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish uchun lingvovidaktik yondashuvlarni qo'llash muhimdir. Buning uchun quyidagi asosiy yo'nalishlar taklif etiladi:

Interaktiv metodlar – o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlash uchun interaktiv metodlarni qo'llash zarur. Bunga guruh ishlari, munozara, rolli o'yinlar va interaktiv o'quv dasturlari kiradi. Bunday yondashuv o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va nutq madaniyatini rivojlantiradi.



Shaxsiy yondashuv – Har bir o‘quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning qiziqishlari va ehtiyojlariga mos metodlarni tanlash zarur. Bu o‘quvchilarning ona tiliga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ular uchun o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

Multimedialar va texnologiyalardan foydalanish – Zamonaviy texnologiyalarni, masalan, kompyuter o‘yinlari, interaktiv ta’lim dasturlari va audiovizual materiallarni qo‘llash, o‘quvchilarning ongini yangi shaklda rivojlantirishga yordam beradi. Bu usullar, ayniqsa, tildan amaliy foydalanishni oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ijodiy vazifalar va mantiqiy mashqlar – O‘quvchilarga mantiqiy va ijodiy vazifalar berish, ularning tildan o‘ylab foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, tasavvurga asoslangan hikoyalar tuzish, tahlil qilish va mulohaza yuritish orqali o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatlari oshadi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Boshlang‘ich ta’limda ona tili fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish lingvovidaktik muammo sifatida katta ahamiyatga ega. O‘qitish jarayonida zamonaviy metodlar va texnologiyalardan foydalanish, shaxsiy yondashuv va interaktiv usullarni qo‘llash, o‘quvchilarning tildan amaliy foydalanishini, nutq madaniyatini va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, tilni o‘rganish jarayonining samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning til bilimlarini mukammallashtirishga xizmat qiladi.

So‘zlash, eshitish, ko‘rish, o‘qish va yozish vositalari orqali fikrni tushunish amalga oshiriladi. Bu barcha vositalar nutqni tashkil etadi va ular yozma hamda og‘zaki shakllarda mavjud bo‘ladi. Nutqning o‘zgacha vositalari, birlklari va ularni ishlatish qonun-qoidalari mavjud bo‘lib, ularning me’yorlari belgilangan.



Ona tilini o'rganishda nutqiy me'yorlarni rivojlantirish va ularni amalga oshirish, "til – me'yor – nutq" tushunchalarini aniqlab olish juda muhimdir. Til, muayyan so'zlar, qo'shimchalar va ularning o'zaro biriktirilishi, shuningdek, fikrni shakllantirish uchun ishlatiladigan usullar haqidagi qonun-qoidalarni qamrab oladi.

Me'yor, til imkoniyatlaridan foydalanishning ko'rsatkichlarini ifodalaydi va uning oliy shakli milliy adabiy tilning uslubiy mezonlarida namoyon bo'ladi. Milliy adabiy til muayyan uslubiy shakllarda yuzaga chiqadi.

Nutq – tafakkurning mahsulotidir. Fikrni bayon qilish jarayoni tafakkur va tilning o'zaro hamkorligi orqali amalga oshadi. Tafakkurning rivojlanishi bilan talabaning og'zaki va yozma fikr bayon qilish qobiliyati ham rivojlanadi.

Boshlang'ich ta'limda ona tili fanlarini o'qitishda bir qator lingvodidaktik muammolar mavjud bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi:

Alifbo va yozuv tizimining o'ziga xosligi

O'zbek tili yozuvi lotin alifbosiga asoslangan bo'lsa-da, muammolar quyidagicha ko'rindi:

1. Harflarning tovushlar bilan mos kelishi va o'qish qoidalarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar. Bolalar uchun "x", "h", "o", "u", "k", "q", "g" kabi o'ziga xos tovushlarni farqlash va to'g'ri talaffuz qilish murakkab bo'lishi mumkin.

2. Lotin yozuviga o'tish jarayonining uzoq davom etishi. Bu holat turli avlodlar o'rtasida yozuv farqlari va o'quv materiallaridagi nomuvofiqlikka olib keladi.

Nutq madaniyati va adabiy til o'rtasidagi tafovut

1. O'zbek tilida rasmiy va norasmiy nutq uslublarining farqi katta. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun adabiy tilni kundalik suhbat tilidan ajratib o'rganish qiyinchilik tug'diradi.

2. Mumtoz adabiyot matnlarining murakkabligi. Alisher Navoiy yoki boshqa mumtoz yozuvchilar asarlaridan berilgan parchalarning o'qitilishi zamonaviy bolalar nutqidan uzilib qolganlik hisini berishi mumkin.

Testga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi

1. O'quv dasturlari ko'pincha imtihonlarga tayyorgarlikka qaratilgan bo'lib, grammatika qoidalarini yodlash va so'z boyligini kengaytirishga urg'u beriladi. Bu



tilni ijodiy foydalanish va tanqidiy fikrlash vositasi sifatida rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

2. Matn yaratishda an'anaviy qoliplardan foydalanish. Bu o'quvchilarning o'ziga xos uslubini shakllantirish imkoniyatini cheklaydi.

Zamonaviy texnologiyalarning ta'siri

1. Internet va ijtimoiy tarmoqlarda qisqartmalar va oddiy tilning keng tarqalishi. Bu yoshlarning grammatik qobiliyatları va to'g'ri yozish ko'nikmalariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2. Texnologiyaga tayanib qo'lda yozish va diktant mashqlari ahamiyatini yo'qotmoqda. Bu esa harf va so'zlarni eslab qolish qobiliyatini pasaytiradi.

Mahalliy shevalar va dialektlarning ta'lindagi o'rni

O'zbekistonda "qipchoq", "qarluq", "o'g'iz" kabi shevalar mavjud bolsa-da, ta'linda faqat standart o'zbek tili qo'llaniladi. Bu mahalliy madaniy xilma-xillikni yo'qotish xavfini keltirib chiqaradi va shevada so'zlashuvchi bolalar uchun tilni o'zlashtirishni qiyinlashtiradi.

O'qituvchilar malakasi va metodik yondashuv

1. Ta'linda an'anaviy usullarga (masalan, mashqlar va matn o'qish) ko'proq tayaniladi. Zamonaviy interaktiv metodlar – loyihamalar, munozaralar yoki guruh ishlari kam qo'llaniladi.

2. Lingvovidaktika sohasidagi zamonaviy tadqiqotlar va innovatsion usullardan foydalanish darajasi past.

Ijtimoiy o'zgarishlarning ta'linda aks etishi

1. Ota-onalarning bolalar bilan muloqot vaqtining qisqarishi. Bu bolalarning so'z boyligi va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi.

2. Globalizatsiya ta'sirida xorijiy tillarga (ingliz, rus) e'tibor ortib, ona tili darslariga ajratilgan vaqt va qiziqish kamaymoqda.

Boshlang'ich ta'linda ona tili fanlarini o'qitishda mavjud muammolarni tahlil qilib, quyidagi takliflarni yechim sifatida tavsiya qilamiz:

1. Ona tili o'qitishda vizual va interaktiv usullarni (ilova, o'yinlar) joriy qilish orqali harf va so'zlarni o'rganishni qiziqarli tashkil etish.
2. Mahalliy shevalarni madaniy meros sifatida darslarda qisman kiritish.



3. Nutq madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ijodiy mashqlar va loyihalarni ko'paytirish.

Buning uchun o'quv dasturlarining mazmunini davr va global ta'lif talablariga mos ravishda tahrir qilish, o'qituvchilar malakasini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni ta'limga moslash mexanizmlarini yaratish va ularni uzviylik asosida amalga oshirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Назарова С. Ўзбек тили ўқитиши методикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 9–21.
2. Sh A., Davronov A. Shaxslararo munosabatda profaylingning verbal va noverbal muloqotda qo'llanilishi //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2022. – Т. 2. – №. 3. – С. 147-154. <https://tipi.uz/>
3. Sobirova M.Y. Ona tilining ta'limiylar va tarbiyaviy ahamiyati. Zamonaviy filologiya va lingvodidaktikaning dolzarb masalalari. 2024-yil, 23-24-aprel. <https://cspu.uz/>
4. Jo'rayeva N. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasining dolzarb masalalari. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES. 2021/2. 118-121-betlar. www.ares.uz
5. Очилова Ф. Роль социально-гигиенического воспитания и профилактики вредных привычек у студенческой молодежи //O'zbekiston Milliy universiteti xabarlari, 2024,[1/11] Issn 2181-7324.
6. Хамидова Шахло Пулат кизи. (2024). Эффективность использования интерактивных методов в обучении учащихся младших классов. Journal of new century innovations, 65(2), 7-10. <https://scientific-jl.org/new/article/view/3159>